

**SINDIKATLASHTIRILGAN KREDITLARNING O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI**

**G'ofurov Javohir Jaxongir o'g'li**  
*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, katta o'qituvchi*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda sindikatlashtirilgan kreditlarning O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Sindikatlashtirilgan kreditlar yirik loyihalarini moliyalashtirishda, xalqaro moliyaviy hamkorlikni rivojlantirishda va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishda asosiy vositalardan biri sifatida ko'rildi. Ushbu kreditlar orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalg qilish va strategik tarmoqlarni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq, ushbu kreditlar bilan bog'liq xavflarni boshqarish zarurligi ham ko'rsatib o'tildi. Ushbu izlanish davomida O'zbekistonning moliyalashtirish tizimi, tijorat banklarining roli va sindikatlashtirilgan kreditlarning iqtisodiy o'sishga ijobjiy ta'siri keng muhokama qilinadi.

**Kalit so'zları:** Sindikatlashtirilgan kreditlar, O'zbekiston iqtisodiyoti, yirik loyihalar, xalqaro moliyaviy hamkorlik, tijorat banklari, xorijiy sarmoyalalar, moliyalashtirish xavflari.

O'zbekiston iqtisodiyoti tobora globallashib borayotgan dunyo moliyaviy tizimida muhim ishtirokchilardan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda moliyalashtirish manbalarining samarali va to'g'ri boshqarilishi iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishning asosiy omillaridan biridir. Aynan shunday sharoitda sindikatlashtirilgan kreditlar xalqaro moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish va yirik loyihalarini amalga oshirishda strategik vosita hisoblanadi.

Sindikatlashtirilgan kreditlar - bu bir nechta bank yoki moliyaviy institutlar tomonidan birgalikda taqdim etiladigan kreditlar bo'lib, yirik moliyaviy loyihalar

uchun zarur bo'lgan mablag'ni jalb qilish imkoniyatini beradi. Bu kredit shakli xalqaro moliyaviy tizimda keng qo'llaniladi, chunki u yirik loyihalar uchun moliyaviy xavfni bir nechta banklar o'rtasida taqsimlash imkonini yaratadi.

Sindikatlashtirilgan kreditlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri quyidagilardan iborat:

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi doirasida, yirik investitsiya talab qiladigan loyihalar alohida o'ringa ega. Xususan, energetika, transport, infratuzilma va telekommunikatsiya sohalari mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ushbu tarmoqlarda amalga oshiriladigan loyihalar milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish va diversifikatsiya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu loyihalarni moliyalashtirishda sindikatlashtirilgan kreditlar asosiy moliyaviy manba sifatida o'ziga xos o'ringa ega.

Sindikatlashtirilgan kreditlar yirik moliyaviy resurslarni bir necha bank va moliyaviy institutlar orqali jalb qilishi tufayli, moliyaviy risklarni taqsimlash va moliyalashtirish jarayonida qo'shimcha xavfsizlikni ta'minlaydi. O'zbekistonda bunday kreditlash mexanizmi energetika va infratuzilma sohalaridagi yirik loyihalar uchun qo'llaniladi, bu esa davlat va xususiy sektor uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi.

Energetika sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Energiya resurslari mamlakat ichki ehtiyojlarini ta'minlash bilan birga, eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston elektr energiyasi ishlab chiqarish va taqsimlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda yangi energiya manbalarini rivojlantirishda sindikatlashtirilgan kreditlarga tayanishi maqsadga muvofiq. Bu kreditlar yangi elektr stansiyalar qurilishi, mavjud quvvatlarni kengaytirish va energiya samaradorligini oshirish loyihalarini moliyalashtirishda muhim vosita sifatida ishlataladi.

Masalan, mamlakatning qayta tiklanadigan energiya sektorida, quyosh va shamol energiyasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohada sindikatlashtirilgan kreditlar jalb qilinishi orqali xalqaro moliyaviy institutlar va

xorijiy investorlar bilan hamkorlikda yirik loyihalarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Energiya sektori uchun ushbu kreditlarning jalg qilinishi nafaqat mahalliy iqtisodiy o'sishga yordam beradi, balki energiya eksportini oshirish va milliy daromad manbalarini kengaytirish imkonini beradi.

Transport va infratuzilma sohalari har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining poydevoridir. O'zbekistonning geografik joylashuvi strategik ahamiyatga ega bo'lib, uni xalqaro transport va savdo yo'llari chorrahasida joylashgan muhim davlatga aylantiradi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish uchun transport infratuzilmasini rivojlantirish va logistika tizimlarini modernizatsiya qilishni talab etadi.

Sindikatlashtirilgan kreditlar transport va infratuzilma sohalarida ham yirik loyihalarni moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, temir yo'llar va avtomobil yo'llarini modernizatsiya qilish, yangi logistika markazlarini barpo etish, shuningdek, aeroportlar va port infratuzilmasini yaxshilash uchun katta miqdorda mablag' zarur. O'zbekistonning temir yo'l tarmoqlari mamlakat ichki va mintaqaviy transport tizimining asosini tashkil etadi, va ushbu tarmoqni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag' sindikatlashtirilgan kreditlar yordamida jalg qilinadi. Masalan, mamlakat ichidagi asosiy temir yo'l yo'llarini modernizatsiya qilish va yangi yo'naliishlarni ochish uchun xalqaro banklar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda sindikatlashtirilgan kreditlar orqali mablag' jalg qilinsa, ushbu kreditlar mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish va xalqaro transport yo'llarida O'zbekistonning ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. Xalqaro transport tarmoqlariga integratsiyalashuv orqali, O'zbekiston o'z savdo imkoniyatlarini kengaytirishi va eksport hajmini oshirishi mumkin.

Telekommunikatsiya sohasi ham iqtisodiy taraqqiyotning asosiy qismi sifatida qaraladi. O'zbekiston raqamli iqtisodiyotga o'tishda va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) rivojlanishida faol harakat qilmoqda. Sindikatlashtirilgan kreditlar AKT infratuzilmasini rivojlantirishda, yangi texnologiyalarni joriy etishda, milliy tarmoqni kengaytirishda va xalqaro aloqa tizimlariga integratsiya qilishda muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Sindikatlashtirilgan kreditlarning yana bir muhim jihatni xalqaro investorlar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish imkonini berishidir. Xorijiy banklar va moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik O'zbekiston uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Xalqaro moliyaviy hamkorlikning rivojlanishi orqali yirik iqtisodiy loyihalarga sarmoya jalb qilinmoqda.

Bu, ayniqsa, strategik tarmoqlarga xorijiy texnologiyalarni jalb qilish va boshqaruv tajribalarini o'rganishda muhim omil bo'lib, xalqaro moliyaviy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytiradi. Xorijiy investitsiyalarning kelishi milliy iqtisodiyotga qo'shimcha barqarorlik kiritib, yirik loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston tijorat banklarining ishtiroki va rivojlanish tendensiyalari O'zbekiston tijorat banklari sindikatlashtirilgan kreditlar berish orqali xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyalashmoqda va o'z moliyaviy salohiyatini oshirmoqda. Tijorat banklarining bu kredit jarayonidagi ishtiroki milliy iqtisodiy loyihalarning moliyalashtirilishini ta'minlab, banklarning barqarorligini oshiradi. Banklararo hamkorlik sindikatlashtirilgan kreditlar berish orqali kuchayib, yirik loyihalarni moliyalashtirishda hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirmoqda. Bu jarayon tijorat banklarining moliyaviy xavflarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sindikatlashtirilgan kreditlar O'zbekistonning tijorat banklariga yirik loyihalarda qatnashish imkoniyatini beradi, bu esa moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlash va banklarning xalqaro maydonda nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Banklararo hamkorlik yangi investitsiya jalb qilish mexanizmlarini yaratadi va mahalliy banklarning xalqaro tajribasini kengaytiradi.

Sindikatlashtirilgan kreditlarning risklari va imkoniyatlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, sindikatlashtirilgan kreditlar bilan bog'liq xavflar orasida, eng avvalo, valyuta xavfi mavjud. O'zbekiston milliy valyutasi kursidagi o'zgarishlar xorijiy valyutada olingan kreditlarning to'lov qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday xavflarni boshqarish uchun moliyaviy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish zarur. Sindikatlashtirilgan kreditlar iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. Ular orqali yangi ish o'rnlari yaratish, texnologik yangiliklarni joriy etish va strategik loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, tijorat banklari moliyaviy xavflarni boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sindikatlashtirilgan kreditlar O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Ular orqali yirik loyihalarni moliyalashtirish, xalqaro moliyaviy hamkorlikni kuchaytirish va tijorat banklarining moliyaviy salohiyatini oshirish kabi qator imkoniyatlar yaratilmoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali xorijiy sarmoyalar jalb etilib, iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashtiriladi. Shuningdek, sindikatlashtirilgan kreditlarni rivojlantirish orqali O'zbekiston iqtisodiyoti global moliyaviy tizimda yanada mustahkam mavqega ega bo'lib bormoqda.

### **Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2017). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
2. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2019). Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. McGraw-Hill Education.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari , [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz).
4. Investopedia. Sindikatlashtirilgan kreditlar: ta'riflar va global tendensiyalar: <https://www.investopedia.com/terms/l/loansyndication.asp>
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi, [www.imv.uz](http://www.imv.uz)
6. O'zbekiston Respublikasi hukumat portalı, [www.gov.uz](http://www.gov.uz)